
BUGUN TUMANDA

Prezidentimizning "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qarori doirasida Toshloq tumanida aholini ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida "Zarkent" MFYda 8,5 km toza ichimlik suvi tarmog'i tortish hamda 2 ta suv inshootini qurish ishlari olib borilmoqda.

Qarorga ko'ra, davlat byujetidan 2 milliard 900 million so'm mablag' ajratildi. Qurilish-ta'mirlash ishlar yakunlanishi bilan mahalladagi 500 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

2023-03-11 17:13:26